

"O'zkiyosanoat" AJ "Davlat tilida ish yuritish bo'yicha eng namunali vazirlik-idora" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi

// 15.12.2023

<https://uzkiyosanoat.uz/oz/press/news/o-zkiyosanoat-aj-davlat-tilida-ish-yuritish-bo-yicha-eng-na>



"O'zkiyosanoat" AJ "Davlat tilida ish yuritish bo'yicha eng namunali vazirlik-idora" nominatsiyasi g'olibi bo'ldi



Bugun "Turkiston" san'at saroyida Respublika Ma'naviyat va ma'rifat markazi tomonidan tashkil etilgan "Eng namunal vazirlik va idora" tanlovining taqdirlash marosimi bo'lib o'tdi.



Ahamiyatlisi, tanlovda "O'zkimyosanoat" AJ "Davlat tilida ish yuritish bo'yicha eng namunali vazirlik-idora" nominatsiyasida g'olib bo'ldi va 8 mln so'mlik kitoblar jamlanmasi bilan taqdirlandi. Mukofotni "O'zkimyosanoat" AJ boshqaruvi raisining maslahatchisi Sanobar Abduraxmanova qabul qilib oldi.



Jamiyatimiz va tizim korxonalari davlat tilimizning mavqeini yuksaltirishda va bu ishda namuna bo'lishda davom etadi.